

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING CHET TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY O'QITISH METODLARI ORQALI O'QUVCHILARNING TINGLAB TUSHUNISH VA GAPIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Mingboev Jasurbek Faxriddin o'g'li
Samarqand viloyati Bulung 'ur tumani 2-maktab
Nemis tili fani 1-toifali o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lism maktablarining chet tili (nemis tili) darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning tinglab tushunish hamda og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Interaktiv metodlar, CLT (Communicative Language Teaching), task-based learning, audio-lingual yondashuv va boshqa ilg'or strategiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar tilga bo'lgan qiziqishini oshirish, muloqotga kirishishiga turki berish va real hayotiy vaziyatlarda chet tilidan foydalanish imkoniyatlarini kuchaytirish yo'llari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada zamonaviy texnologiyalar, mobil ilovalar va raqamli resurslarning o'rni va ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: chet tili ta'limi, tinglab tushunish, og'zaki nutq, zamonaviy metodlar, CLT, task-based learning, interaktiv yondashuv, kommunikativ kompetensiya, o'quvchilar faolligi.

Bugungi kunda chet tillarini o'qitish jarayonida asosiy e'tibor faqat grammatik qoidalarning o'zlashtirilishiga emas, balki o'quvchilarning real muloqotga kirishish, eshitgan matnni anglash va o'z fikrini erkin bayon qila olishiga qaratilmoqda. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida chet tili darslarida tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarining rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Til – bu insoniyat uchun asosiy aloqa vositasidir. U jamiyat a'zolari o'rtasida fikr almashish, axborot yetkazish va o'zaro tushunishni ta'minlab beruvchi kuchli ijtimoiy vosita bo'lib, tilisiz inson jamiyatining mavjudligi va taraqqiyoti tasavvurga sig'maydi. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ijtimoiy munosabatlarda ro'y berayotgan keskin o'zgarishlar, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi, o'quvchilardan yuqori darajadagi kommunikativ malaka va faol muloqot qobiliyatini talab qilmoqda. Ular kundalik hayotda, turli ijtimoiy va madaniy vaziyatlarda, boshqa shaxslar bilan samarali fikr almashish, o'z fikrini aniq va ravon bayon qilish, til me'yorlariga rioya etgan holda muloqotda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur.

Shu sababli, xorijiy tilni o'rgatishning zamonaviy maqsadi oddiy grammatik bilim berish bilan cheklanmaydi. Asosiy e'tibor chet tilida erkin va samarali muloqot qilish, ya'ni shaxslararo hamda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga

qaratilgan. Bu esa o‘quvchilarning chet tillarini nafaqat o‘qib-tushunishi, balki real hayotiy vaziyatlarda mustaqil ravishda foydalanishi, global muloqot muhiti talablariga javob bera olishini ta’minlaydi.

Maktab ta’limining hozirgi bosqichida esa ta’lim tizimida muhim pedagogik o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu o‘zgarishlar pedagogik faoliyatning deyarli barcha yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatib, o‘qituvchilardan yangicha yondashuv va innovatsion fikrlashni talab qilmoqda. Endilikda ta’lim jarayoniga aniq maqsad va vazifalar belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi uchun zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, o‘qituvchining zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirishi, uning pedagogik mahoratini yuksaltirishda muhim vosita hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni ta’limga tadbiq etish, nafaqat dars jarayonining interaktivligini oshiradi, balki pedagogik faoliyatda yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga, metodologik yondashuvlarda aniqlik va tizimlilikning yuzaga kelishiga, shuningdek, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradigan samarali usullarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy metodlar orqali o‘quvchilar faolligini oshirish va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish mumkin. Quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Nemis tilini amaliyotda qo‘llashga o‘rgatuvchi bu metod orqali o‘quvchilar kundalik hayotiy mavzular doirasida muloqotga kirishishni o‘rganadilar. Masalan: “Im Restaurant”, “Meine Familie”, “Freizeit und Hobbys” kabi mavzular asosida rolli o‘yinlar, suhbatlar tashkil etiladi.

Task-Based Language Learning (TBL)-Mazkur yondashuv o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda real hayotiy topshiriqlar orqali tilni qo‘llashga imkon yaratadi. Masalan, biror buyumni taqdim qilish, yo‘nalishni tushuntirish, suhbat qurish kabilari.

Nemischa audio materiallar (masalan, “Deutsch lernen mit Dialogen”, “Nicos Weg” seriali) orqali o‘quvchilarning tinglab tushunish va talaffuz qobiliyati oshiriladi. O‘qituvchi talabalar bilan birgalikda matnlarni takrorlaydi, savollarga javob beradi, so‘zlarni intonatsiya bilan o‘qitadi.

Interaktiv ilovalar (Duolingo, Quizlet, Anki, Deutsche Welle), nemischa podcastlar va videoedarslar (Easy German, Learn German with Jenny) o‘quvchilarning darsdan tashqari mustaqil o‘rganishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, differensial yondashuvda har bir o‘quvchining til darajasi va qiziqishiga mos topshiriqlarni tanlash ularning darsdagi ishtirokini kuchaytiradi va mustaqil o‘rganishga undaydi.

Shuni ham aytish joizki, ta’lim jarayonida xorijiy tilni o‘rgatishda kommunikativ yondashuv va innovatsion metodlar muhim o‘rin tutadi. Chet tilini o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida qo‘llanilayotgan uslublar tilni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy

tarzda ham o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Quyida xorijiy til o‘rgatishda keng qo‘llaniladigan metodlar tafsilotlari bilan keltirilgan.

Kommunikativ yondashuv – bu o‘quvchilarga chet tilini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatishga qaratilgan metod bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu yondashuvda grammatik qoidalarni yod olishdan ko‘ra, tilni faol muloqot vositasi sifatida qo‘llash muhim sanaladi. O‘quvchilar turli muloqot shakllarida, jumladan, suhbatlar, rolli o‘yinlar, munozaralar va jamoaviy topshiriqlar orqali o‘z fikrlarini chet tilida erkin ifoda etishni o‘rganadilar. Bu esa ularning til ko‘nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qo‘llaniladigan usullar:

- Rolli o‘yinlar orqali ijtimoiy rollarni bajarar ekanlar, o‘quvchilar o‘zaro erkin muloqotga kirishadilar;
- Dialoglar va munozaralar orqali fikr almashish va eshitish-ko‘rish kompetensiyalari shakllanadi;
- Jamoaviy topshiriqlar esa ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirib, chet tilida faol ishlashga undaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirdi. Endilikda xorijiy tillarni o‘qitishda turli kompyuter dasturlari, mobil ilovalar va onlayn ta’lim platformalari keng miqyosda foydalilanmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat darslarni jonli va interaktiv tarzda o‘tkazish, balki o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish imkonini ham beradi.

Mashhur ilovalar va platformalar:

- Duolingo, Babbel, Memrise – o‘quvchilarga interaktiv mashqlar orqali mustaqil ravishda til o‘rganish imkoniyatini yaratadi;
- Zoom, Skype, Google Meet – masofaviy darslar orqali o‘quvchi-o‘qituvchi o‘rtasidagi jonli muloqotni ta’minlaydi.

Bu texnologiyalar yordamida darslar yanada qiziqarli, interaktiv va o‘quvchiga yo‘naltirilgan shaklga ega bo‘ladi.

Audio-lingvistik metod - Bu metod 20-asr o‘rtalarida til o‘rganishga yangi yondashuv sifatida paydo bo‘lib, asosan, eshitish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Unda o‘quvchilarga turli gaplar va iboralar bir necha bor takrorlanadi, shundan so‘ng ular o‘sha iboralarni o‘zlashtirib, mustaqil qo‘llay boshlaydilar. Bu metod til sezgisini kuchaytiradi va tabiiy muloqotda avtomatik javob qaytarish qobiliyatini shakllantiradi.

Bundan tashqari, interaktiv metodlar darsda o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etadi. Ular orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishslash va muloqotga kirishish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu uslublar darslarni jonlantiradi, har bir o‘quvchini dars jarayoniga jalb etadi.

Samarali interaktiv usullar:

- Mind mapping – mavzuni vizual tarzda tahlil qilish orqali fikrlarni tizimlashtirish;
- “Fallstudie” (Case-study) – hayotiy muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali real tajriba orttirish;
- Debatlar – o‘quvchilarning tanqidiy va analitik fikrash qobiliyatini shakllantirish, fikrni asoslash va himoya qilish malakasini kuchaytiradi.

Vazifaga asoslangan ta’lim-Bu metodda til o‘rganish amaliy vazifalar asosida amalga oshiriladi. O‘quvchilar real hayotga oid topshiriqlarni bajarish davomida lug‘at boyligini oshiradilar, grammatik strukturalarni amaliyotda mustahkamlab boradilar. Ushbu yondashuv chet tilini bevosita kundalik ehtiyojlar uchun foydali vosita sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Misollar:

- Savdo qilish, mehmonxonaga buyurtma berish, yo‘l ko‘rsatish kabi mavzularda topshiriqlar;
- Intervyu tayyorlash yoki og‘zaki taqdimotlar qilish orqali ko‘nikmalarni mustahkamlash.

Bundan tashqari, tinglab tushunish — til o‘rganishning ajralmas va muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bu ko‘nikma orqali o‘quvchilar nutqni eshitib, uning mazmunini anglab olishni o‘rganadilar. Odatta chet tili ta’limida tinglab tushunishga katta e’tibor qaratiladi, biroq hozirgi kunda ona tili o‘qitilishida bu ko‘nikma yetarlicha rivojlantirilmayapti degan qarashlar ham uchraydi. Aslida esa, ona tilini o‘rganishda ham tinglab tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina o‘qitish uslubi va baholash mezonlari jihatidan chet tiliga nisbatan ayrim o‘ziga xos farqlar mavjud.

Tinglab tushunish malakasini rivojlantirish samarali bo‘lishi uchun uni amaliy faoliyat doirasida o‘rgatish muhimdir. Bu esa quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Audiomatnni tanlash yoki tuzish — matn o‘quvchilarning yoshiga, til darajasiga va qiziqishlariga mos bo‘lishi lozim.

Eshitish sharoitlarini belgilash — bu jarayon butun sinf bilan, kichik guruhlarda yoki individual tarzda olib borilishi mumkin.

Tushunganlikni baholash — maxsus topshiriqlar orqali o‘quvchilarning matnni qanday darajada anglaganliklari tekshiriladi.

O‘qituvchi audiomat ustida ishlashdan avval uni o‘zi eshitib chiqishi va murakkab joylarini aniqlab, ular uchun zaruriy izoh yoki yordamchi vositalarni tayyorlashi kerak. Masalan, darsda rasm, grafik, doskaga yozilgan asosiy so‘zlar, audio qurilmalar yoki video materiallardan foydalanish mumkin.

Dars jarayonida tinglab tushunishni o‘rgatish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

Dastlab tinglashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar bartaraf etiladi.

O‘quvchilarga audiomatnni birinchi bor tinglashdan avval aniq va tushunarli ko‘rsatmalar beriladi.

Birinchi tinglashdan so‘ng tushunganlik maxsus savollar yoki topshiriqlar yordamida aniqlanadi.

Keyin audiomatn ikkinchi bor tinglanadi, bu safar chuqurroq anglash va detalga e’tibor qaratiladi.

Yakunda tinglangan matn asosida baholash ishlari amalgalash oshiriladi va zarurat tug‘ilsa, matn bo‘yicha og‘zaki yoki yozma nutq mashqlari bajariladi.

Metodik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, matnni ikki yoki uch marta tinglash orqali o‘quvchilar uni yaxshiroq tushunadilar. Shundan ortiq tinglash esa ko‘p hollarda samarasiz bo‘lishi mumkin. Tinglangan matn asosida dialoglar qurish, fikr bildirish yoki voqealarni qayta hikoya qilish orqali og‘zaki nutq ham rivojlantiriladi. Shuningdek, audiofilmlar, kino lavhalaridan foydalanish darsni yanada qiziqarli va jonli qiladi.¹

Xulosa qilib aytganda, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikmalarini — til o‘rganishning asosiy omillaridan biridir. Zamonaviy metodlar yordamida nemis tili darslarini jonlantirish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash mumkin. Ayniqsa, eshitish va og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar — o‘quvchilarda chet tilini amaliy qo‘llashga bo‘lgan ishonchni oshiradi. O‘qituvchilar zamonaviy yondashuvlarni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Richards, Jack C., and Theodore S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
2. Nunan, David. Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press, 2004.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Chet tillarni o‘qitish metodikasi”. Toshkent, 2022.
4. Mavlonova, R. H. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan, 2021.

¹ Mavlonova, R. H. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan, 2021.